
“YUQORIQISHLOQ” MAHALLASIDA ICHKI YO‘LLAR TA‘MIRLANMOQDA

Toshloq tumani “Yuqoriqishloq” mahallasidagi ichki yo‘llar bir necha yillardan buyon ta‘mirlanmagani, nosozligi, aholining haqli e‘tirozlariga sabab bo‘lib kelayotgan edi.

Prezidentimizning "Mahallalarda birinchi navbatda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi PQ-154-sonli qaroriga ko‘ra, ayni kunlarda 2-sektor hududidagi ushbu mahalladagi ichki ko‘chalarda asfaltlash ishlari olib borilmoqda.

Qarorga ko‘ra, ichki ko‘chalarning 5,2 km masofasi ta‘mirlanadi. Yo‘l qurilishiga 2 milliard 600 million so‘m mablag‘ ajratildi. O‘z navbatida prokuratura xodimlari hamda mahalla faollari bilan birgalikda amalga oshirilayotgan ta‘mirlash ishlarini sifatli bajarilishi ustidan jamoatchilik nazorati o‘rnatilgan.

2023-07-13 10:46:17